

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Xojimatov	
Globalashuv sharoitida musiqiy qadriyatlarining estetik ta'sirchanligining o'zgarib borishi va qadrsizlanishi jarayoni.....	442
B.S.Sobirov	
Aktyorlik faoliyatini shakllantirishda aktyorlik san'ati xususiyatlari	448
D.A.Yuldasheva	
Yangi O'zbekiston sharoitida madaniyat va san'at sohasi rivojining takomillashuvi	451
I.I.Qirg'izov	
Nomoddiy madaniy meros tarkibiga kirgan shashmaqom janiriga aksiologik munosabatning yuksalishi	455
I.T.Yuldashev	
Jamiyat ma'naviy yangilanishi jarayonida miniatyura san'atining o'rni va ahamiyati	459
L.E.Tursunova	
Yangi O'zbekistonda yoshlar estetik madaniyatini milliy musiqa tarbiyasi asosida rivojlantirish vazifalari	462
M.Achildiyeva	
O'zbek musiqa san'ati rivojining tarixiy takomil bosqichlari va yo'llari	468
N.X.Djalalova	
Musiqiy madaniyat-yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda muhim omillardan biri sifatida	473
N.R.Mansurova	
Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy musiqiy merosni asrashga doir bilimlarini rivojlantirishning texnologik asoslari	478
O.R.Soliyev	
Barokko davrida san'atning o'ziga xosligi	488
R.A.Orziboyev	
Milliy musiqamizga doir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari tahlili	491
R.J.Soxibov	
Naqqoshlikda kompozitsiya va uning qo'llanilishi	495
A.B.Sulaymanova	
The importance of modern innovative pedagogical technologies in teaching engineering graphics	500
U.T.Isakov	
O'zbek xalqi musiqa madaniyatining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan o'zaro aloqadorligi	503
Z.A.Boboyeva	
Yoshlarning badiiy tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san'atning o'rni.....	508
J.Sh.Muydinov	
O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqa mashg'ulotlarining ahamiyati	511
N.M.Madaminov	
Oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentsiyasini rivojlantirishning ahamiyati.....	515
M.T.Yunusaliyev	
Akvarel texnikasida noan'anaviy yondashuv	518
D.Q.Oxunova, S.Sh.Hakimova	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilimlarni kognitiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiya va metodlari	524
D.K.Rafikova	
O'quvchilarni kasbga yo'naltrishning pedagogik zaruriyati.....	528
S.H.Mamajonov	
Amir Temur mohir strategik.....	533
D.M.Xolikova	
Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	536
O.S.Usmonova	
1-sinf o'quvchilarini mnemotexnika yordamida chiroyli yozishga o'rgatish.....	544



UO'K: 37.015.3:159.922

**TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI****ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
НАВЫКОВ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ****PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF IMPROVING STUDENTS'
INNOVATIVE THINKING SKILLS****Xolikova Dilobarxon Maxsitovna** 

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), доцент

Annotatsiya

Texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi va mehnat bozorining transformatsiyasi sharoitida o'quvchilarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritish.

Innovatsion fikrlash tushunchasi: innovatsion fikrlashning asosiy xususiyatlari va komponentlari tahlil qilinadi.

O'quvchilarda innovatsion fikrlash rivojlanishining psixologik xususiyatlari: innovatsion qobiliyatlarni shakllantirishga ta'sir etuvchi yosh va shaxsiy kognitiv jarayonlarning xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Innovatsion fikrlashni takomillashtirish pedagogik usullari va metodlari: ijodiylik, fantaziya, nostandart vazifalarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali metodlar taqdim etiladi.

Innovatsion ta'lim muhitining roli va ahamiyati: atmosferaning innovatsion fikrlash shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi.

Annotatsiya o'quvchilarda innovatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qiziquvchi o'qituvchilar, tarbiyachilar, psixologlar, ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Zamonaviy dunyoda raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida o'quvchilarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berish.

Аннотация

В условиях стремительного развития технологий и трансформации рынка труда особую важность приобретает формирование у учащихся навыков инновационного мышления.

Освещение педагогико-психологических особенностей совершенствования навыков инновационного мышления у учащихся.

Понятие инновационного мышления: анализируются основные характеристики и компоненты инновационного мышления.

Психологические особенности развития инновационного мышления у учащихся: рассматриваются возрастные и индивидуальные особенности когнитивных процессов, влияющих на формирование инновационных способностей.

Педагогические приемы и методы совершенствования инновационного мышления: представлены эффективные методики, направленные на развитие креативности, фантазии, способности к решению нестандартных задач.

Роль и значение инновационной образовательной среды: анализируется влияние окружающей среды на формирование инновационного мышления.

Аннотация предназначена для учителей, воспитателей, психологов, родителей, заинтересованных в развитии инновационных способностей у учащихся.

Предоставление практических рекомендаций по совершенствованию навыков инновационного мышления учащихся для повышения их конкурентоспособности в современном мире.

Abstract

In the context of rapid technological development and the transformation of the labor market, the formation of innovative thinking skills in students becomes particularly important.

To shed light on the pedagogical and psychological characteristics of improving innovative thinking skills in students.

The Concept of Innovative Thinking: The main characteristics and components of innovative thinking are analyzed.

Psychological Features of the Development of Innovative Thinking in Students: Age and individual characteristics of cognitive processes that influence the formation of innovative abilities are examined.

PEDAGOGIKA

Pedagogical Techniques and Methods for Improving Innovative Thinking: Effective methods aimed at developing creativity, imagination, and the ability to solve non-standard problems are presented.

The Role and Significance of an Innovative Educational Environment: The impact of the surrounding environment on the formation of innovative thinking is analyzed.

The annotation is intended for teachers, educators, psychologists, parents, and anyone interested in developing innovative abilities in students.

To provide practical recommendations for improving the innovative thinking skills of students to enhance their competitiveness in the modern world.

Kalit so'z: rivojlanish, ijod, ijodkorlik, fikr, dono.

Ключевые слова: развитие, творчество, креативность, мысль, мудрость.

Key words: development, creativity, thought, wisdom.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'limni zamonaviylashtirishga bo'lgan e'tibor yanada orta boshladi. Bugungi kunda jahon ta'limi tajribasini o'rganish dolzarb masalalar sifatida qaralmoqda. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida dadil odimlayotgani jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida tub o'zgarishlar qilish kerakligini bosh maqsad qilib belgilaydi. Shunday ekan, biz pedagoglar talabalarga zamonaviy ta'lim va tarbiya berish bilan birga ularning kreativ imkoniyatlarini har tomonlama shakllantirish hamda ularning innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish masalalari oldimizda turgan asosiy maqsad hisoblanadi.

Ma'lumki, intellektual salohiyati yuqori bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyatga davlat siyosati darajasida qaralib keng qamrovli ishlar va islohotlar yuritib kelinmoqda. Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi talab va islohotlarga xos ta'lim tizimini tashkil etilishidir.

Mazkur tizim talablari asosida davlat ta'lim standartlari takomillashtirilib, dasturlar modernizatsiya qilinib, ta'lim muassasalariga yetkazilib berilmoqda.

Ta'lim muassasalarining moddiy bazalari jadallik bilan mustahkamlanmoqda, yangi zamonaviy asbob uskunalar, o'quv qurollari, texnika vositalari va kompyuterlashtirish ishlari aniq davlat rejalari asosida amalga oshirilmoqda. Talabalar, professor-o'qituvchilarni ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish ishlari davlat darajasida ijobiy hal etib borilmoqda. Bu degani yangicha, innovatsion sharoitda talabalarni yangicha ishlash, innovatsion yondashish, innovatsion fikrlash, innovatsion faoliyat yuritishlarini taqozo etadi. Shuning uchun ham an'anaviy pedagogika asosida yangi-innovatsion pedagogika ta'lim jarayoniga keng qo'llanilib, yuqori samaradorlikni kafolatlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahon olimlari va mutaxassislari innovatsion pedagogikani o'qitishning ahamiyati va zaruriyatiga jiddiy yondashib, quyidagi fikrlarni ilgari surmoqda. Ularning fikricha, innovatsion pedagogikaning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv-tarbiya nazariyasini innovatsion asosda qayta tashkil etib, o'zgartirish, yangilash va yangilik kiritish zarur ekanligini anglatadi.

Shuningdek, ular innovatsion pedagogikada ilmiy-nazariy, nazariy va amaliy muammolarni o'rganish va hal qilish muhim ahamiyat kasb etishini keng asoslab o'tmoqda.

Bir guruh innovator olimlarning fikricha hozirga qadar qo'llanib kelinayotgan pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo'l bilan ularga ta'lim berish va tarbiyalash yuqori natija bermaydi, mazkur yondashuv yuqori samara bermasligini ta'kidlab uni asoslab o'tadi. Shunday vaziyatda deydi, butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsion asosda qayta tashkil etib, talaba-yoshlarni innovatsion fikrlashini, ilg'or qarashini, tafakkurini rivojlantirish zaruriyati tug'ilmoqda.

Bizga ma'lumki, innovatsion pedagogikada ta'lim-tarbiya to'g'risidagi ilmiy fikrlar, qarashlar va g'oyalar keng targ'ib etiladi. Insonning shakllanganligi, rivojlanganligi va tarbiyasi haqidagi bilim va ularning yuksalish darajasi talabga muvofiqligi obyektivlikning yagona talabi sanaladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda biz innovatsiyaning quyida tarkibiy qismlariga to'xtalib o'tamiz.

Innovatsiya yangilik kiritish degan ma'noni anglatish bilan birga ta'lim tizimining ichki tuzilishini o'zgartirishni, amaliyot va nazariyaning muhim qismi ekanligi shu orqali esa talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalari takomillashib borishini anglatadi. Innovatsion jarayonning

mazmuniy tomonini ya'ni ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarni bilish va ularni amaliyotga keng tatbiq etishga tayyorlash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi

Pedagogik yangilik – pedagogik faoliyatda ilgari ta'lim jarayonida noma'lum bo'lgan o'zgarishlarni olib kirish orqali ta'lim va tarbiyaning nazariy va amaliy ahamiyatini boyitish va uni rivojlantiruvchi vositasi sifatida tadqiq etiladi.

Innovatika – yangilikni yaratilish qonuniyatlarini o'zlashtirishni va targ'ibotini o'rganadigan fan.

Innovatsion jarayon – innovatikaning kalitli tushunchasi bo'lib, ya'ni yangilikning kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimni yangi ko'rsatgichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi va innovatsion o'zgarishlarga tayyorgarlik ko'rish va uni amaliyotga kiritish jarayonidir.

Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yohud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yorlarining mavjud me'yorlar bilan to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyatdir.

Innovatsion muhit – bu pedagogik jamoada, umuman ta'lim muassasasida shunday ijodiy, samimiy, do'stona sharoit tug'diradiki, unda o'qituvchi o'zini erkin his qiladi, jamoada ichki intilish, moddiy, ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, ishlashga tayyor bo'ladi.

Novatsion – agar islohot faoliyatining shakli, mazmuni va ko'lami qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, u o'z oldiga muayyan mavjud tuzumdagi faqat ba'zi elementlarni o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novasiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz.

Novator – yangilikni qabul qilish va amalga oshirishga tayyor shaxs sanaladi. O'z shaxsiy pedagogik amaliyotida doimiy yangilik izlaydi, o'zlashtiradi, qo'llaydi. Innovatorlar yangiliklardan yaxshi xabardor va ular bilan kommunikativ muloqot o'rnatadi. Ishni yaxshilash maqsadida tavakkal shaklda ish tutadi. O'quv jarayonini taraqqiyoti va rivojlanishi uchun yangiliklarni loyihalaydi, zarur hollarda izlab, tanlay oladi, muntazam ijod maydonida izlanadi.

O'zgarish – biror mavjud narsani boshqasiga almashtirish (o'zgartirish va variatsiyalash), ilgari mavjud bo'lganidan boshqacharoq ko'rinishda (avvalgiga ko'ra yaxshi tomonga o'zgarigan, ya'ni yangicha ko'rinishda).

Islohat – keng masshtabli, butun tizimni qamrab oladi. Natijada sistema yangi ko'rinish oladi.

Yangilik – ilmiy tadqiqotning yakuniy baholash mezonidir. Yangilikning qiymati va xususiyati aniq mantiqiy ketma-ketlikdagi rivojiga ega bo'lib, u butunlay yangilanadi yoki nisbatan yangilangan bo'ladi.

Innovatsion ta'lim (ingl. "innovatsion" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

Ta'lim innovatsiyalari – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuvga asoslangan holda amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, oldingi jarayondan ko'ra samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

Pedagogik innovatika esa umumiy innovatikaning bir qismi bo'lib, uning bunday muvaffaqiyatli belgilanishini N.R.Yusufbekova [6, 14] tomonidan berilgan. U pedagogik innovatikani pedagogik yangiliklarni yaratish, ularni baholash va pedagogik hamkorlik tomonidan egallash, foydalanish va amalda qo'llash haqidagi fan deb talqin etadi.

G'arbda o'zgarishlar jarayonini tadqiq etish taxminan 1950-yillarning oxirida boshlangan bo'lsa sobiq sovetlar davrida bunday ilmiy bilimlar 1980-yillarning oxirlarida yuzaga keldi. Yurtimizdagi ta'lim tizimida 1990-yillar boshidagi yuzaga kelgan keskin o'zgarishlar ularni amalga oshirishdagi ilmiy ta'minlanmaganlikni ko'rsatdi. Natijada yangiliklarni yaratish va egallashga sarflanadigan intilishlarning ko'pi ijobiy natijalarni bermadi.

"Yangilik" tushunchasini aniqlashda ko'pgina mualliflar, birinchidan, bir maqsadga qaratib amalga oshiriladigan, ikkinchidan esa, ilg'or o'zgarishlarni tushunishadi. Bir qarashda bunday talqin e'tiborga sazovordir, ammo diqqat bilan qaraladigan bo'lsa, unda muhim qarama-qarshiliklar ko'rinadi.

Tadqiqotchi olim N.R.Yusufbekova [6, 14] yangilikni "pedagogik borliqdagi mumkin bo'lgan o'zgarishlarning bunday mazmuni ilgari noma'lum bo'lgan, ilgari ushbu ko'rinishda ta'lim tarixida

PEDAGOGIKA

uchramagan holatga, natijaga olib boradi, ta'lim va tarbiya nazariyasi va tajribasini rivojlantiradi" deb tavsiflaydi.

Ma'lumki, yangilik – nisbiy tushuncha, mutlaqo yangilik (agar u sodir bo'lsa) – faqat qisman uchraydigan holatdir. Bir ta'lim tizimi uchun yangilik bo'lgani, boshqasida – allaqachon amalga kirgan qism bo'lishi mumkin. Yangiliklar ularni ishlab chiqishda qo'yilgan sifatlar bo'yicha farqlanadi. Bu sifatlarga quyidagilar kiradi:

- o'zgarishlar predmeti, ya'ni ta'lim tizimida o'zgarishi mumkin bo'lgan element;
- o'zgarishlar chuqurligi (yangilikdan ko'zda tutiladigan o'zgarishlar chuqurligi);
- o'zgarishlar ko'lami;
- yangilikning moddiy sig'imi;
- ishlab chiqilish darajasi.

Innovatsiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishda quyidagi belgilarga asoslaniladi:

a) Aktual muammolarni hal etishga qaratilganligi (pedagogik innovatsiya muammolarini mazmunini yangicha yechimini amalga oshirishga qaratiladi).

b) Pedagogik amaliyotda keng qo'llanish imkoniyati ochiladi.

Pedagogik innovatsiyalar jarayonining o'zgarishi yangilanishga olib keladi. Natijada yangi (stabil) sifatga ega bo'lgan natijalar qo'lga kiritiladi. Innovatsiyani sistemaning turli predmetlariga ta'siri yangi samaradorlikka olib keladi.

s) Moslashuvga (qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar).

yo) Ishning poyoniga etishiga (innovatsiya to'liq potentsialni tatbiq etish darajasiga yetadi).

Innovatsion fikrlash ko'nikmalarining asosiy funksiyasi pedagogik jarayonni komponentlari, ya'ni mazmun, ma'no, maqsad, ta'lim mazmuni, shakli, metodi, texnologiyasi, ta'lim vositalari, uni boshqaruvlarini o'zgartirishga bo'lgan mustaqil qarashlari, fikrlari, tasavvurlari va munosabatidan iborat.

Talaba – yoshlarni innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ichida M.V.Klarinning [7,223] ishlari ham alohida o'rinni egallaydi. U o'z ishlarida talabalarning innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali tashkil etilgan uzluksiz ta'limning zarurligi bilan bog'laydi. Ushbu yondashishning aksiologiyasi shaxsning erkin tanlash imkoniyatiga yo'nalganligidadir, bunda o'qish, izlanish, tahliliy, tanqidiy, produktiv, ijodiy yondashish faoliyati yetakchi o'rinlardan birini egallaydi va shaxsning rivojlanishidagi muhim, yetakchi vosita bo'lishi, turli bilimlarga bo'lgan talabalarning intilishi, qiziqishi, ko'rsatmasi, shaxsni ta'lim jarayoniga jalb etuvchi usul va vosita bo'lishi mumkin.

Talabalarni innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga oid nazariy qarashlar va ularning tahlili quyidagi qarama-qarshiliklarni aniqlagan:

a) talabalarni innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishning yangi sifatiga bo'lgan talabini yetarlicha ta'minlashga to'g'ri yo'naltirilmaganligi, bu borada qarama-qarshiliklarning mavjudligi;

b) talabalarning innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishning samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mazkur sohadagi ilmiy-uslubiy ishlanmalarning yetarli emasligi, mavjudlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar.

V) talabalarning innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoniga innovatsion yondashuvning tizimlashtirilmaganligi.

Barcha turdagi tadqiqotlar, albatta, zarur va muhimdir, ammo talabalarning innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishni qanday shaklda tashkil etish va boshqarish mumkinligi muammo bo'lib qolmoqda.

Bo'lg'usi pedagog mazkur jarayonning subyekt sifatida maorif tizimidagi har qanday o'zgarishlarni harakatga keltiruvchi asosiy mas'ul shaxs sanaladi. Ta'lim sohasidagi har qanday o'zgarishlar jarayoni talabdan innovatsion, ijodiy, mantiqiy, pedagogik, tanqidiy va mustaqil fikrlash va innovatsion faoliyat xarakteriga mos keluvchi insonparvarlik qadriyatlariga yo'nalganligini talab etadi. Shu bilan bog'liq pedagogik faoliyatning an'anaviy darajasi bilan ijodiy, ilmiy-pedagogik tafakkurga ega bo'lajak o'qituvchiga bo'lgan maktab va jamiyatning zamonaviy talablari o'rtasida qarama-qarshiliklar kelib chiqadi. Shunga o'xshash muammolarni bartaraf etishda pedagogik innovatika muhim omil sifatida amaliy yordam ko'rsatadi. Pedagogik innovatika pedagogik faoliyatni tashkil etish va uning mazmunidagi o'zgarishlar, ularning innovatsion

yo'nalishi, bo'lajak pedagoglarni tayyorlashdagi metodologik va texnologik o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Ammo bu jarayon ilmiy tadqiqotlar va pedagogning innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarning yo'qligi sababli stixiyali xarakterga ega bo'lib qolmoqda.

Innovatsion fikrlashni rivojlantirish muammolaridan yana biri yangiliklarni yangi sharoitlarga moslashtirish orqali amaliyotga tatbiq etishga psixologik yondashuvning sustligi. Ma'lumki pedagogik faoliyatda ko'pincha texnologiyalarni, ta'lim va tarbiya mazmunini boshqa sohalardan yoki ilgari ishlab chiqilgan kontsepsiyalardan ta'lim tizimi xususiyatlari, uning tarixi va an'alarini e'tiborga olmagan holda, mexanik olib o'tishiga to'g'ri keladi. Buning natijasida yangilik o'z mazmuni va mohiyatini yo'qotadi.

Innovatsion faoliyat ta'lim va tarbiya, talabani innovatsion fikrlashdagi stereotiplardan voz kechish bilan bog'langandir, u mavjud me'yorlardan tashqariga chiqadi, yangi shaxsiy-ijodiy me'yorlarni, o'qituvchi faoliyatining individual yo'nalishlarini, bu faoliyatni amalga oshiruvchi yangi pedagogik texnologiyalarni vujudga keltiradi. Bunda novator o'zini ijtimoiy innovatsiyalarni tashuvchi sifatida amalga oshiradi. Innovatsion faoliyatni ta'minlash uni amalga oshirishga qodir yangi ijtimoiy tipdagi o'qituvchi shaxsiga bo'lgan talabni uyg'otuvchi ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ruhiy omillar kabi bir guruh savollarni tatbiq etishni, shu bilan bog'liq pedagogik mahoratni rivojlanish xususiyatlari va innovatsion potensialni ommaviy tajribada qo'llashni, ilmiy innovatsiyalarni ommaviy tajribada tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi ham innovatsion faoliyatga qo'yiladigan talablarga javob bermaydi. Hozirgi davrda pedagogik o'quv yurtlaridagi ta'lim shaxsning belgilangan sifatlarini rivojlantirish bilan shug'ullanmoqda. Egiluvchan o'quv rejaları, dasturlari, darsliklar va o'quv qo'llanmalarining yo'qligi, o'zini individual rivojlantirishi uchun fanlarni tanlash imkoniyatlarining yo'qligi talabani ijodga, yangilikni qabul qilish va yaratishga va innovatsion fikrlashga bo'lgan qobiliyatidan mahrum qiladi. Oliy ta'limning yana hal qilinmagan muammolaridan biri-talabalarni o'qitishning har xil metodik shakllarini izlash hisoblanadi.

Pedagogika bo'yicha yaratilgan metodik qo'llanmalar va darsliklar talabani pedagogik faoliyatini amalga oshirishning "ideal sharoitlariga" yo'naltiradi. Shu bilan birga, bunday yo'nalish birinchi o'tilgan darsdayoq sezilarli bo'lib, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishni xohlamaslikni keltirib chiqaradi.

Ta'lim tizimida ro'y bergan turli e'tirozlar ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar bilan ta'lim tizimi, uning maqsadi, turlari, ta'lim mazmuni va texnologiyasi o'rtasidagi uzilishlarni namoyon qildi. E'tirozlarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablarga quyidagilar tegishlidir: ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talabning o'sishi; o'qituvchi faoliyatiga qo'yilayotgan yangi talablar; ta'lim sohasidagi konservatizm va jamiyatning o'zgaruvchan talablariga yetarlicha moslashmaslik; talabalarning mustaqil faoliyati, faolligi, innovatsion fikrlashi, kasbiy kompetentligini shakllantirishning zarurligi; pedagogik ta'lim texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini olib kiritilmaganligi va h.k.

Fan mantiqiga tayangan an'anaviy ta'lim texnologiyasi (bilimlardan ko'nikmalarga) bilish faoliyati qonuniyatlariga asoslangan yangi texnologiyalar bilan to'ldirilishi lozim. O'quv jarayonida talaba obyekt emas, balki ta'lim subyekti sifatida asosiy figuraga aylanmoqda.

Ta'limning texnologik strategiyasi pedagogik kompetentlik va kasbiy mahorat asosida bo'lajak o'qituvchilarning yangi turdagi innovatsion fikrlashi va tafakkurini shakllantirishni ko'zda tutadi.

Tadqiqotchi olim S.T.Turg'unovning [8,14] ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mazkur jarayonga innovatsiyalarni tatbiq etish, o'qitishning eng ilg'or texnologiyalaridan foydalanish, subyektlarning Innovatsion faoliyatini tashkil etish asosida reflektiv ta'limiy muhitni vujudga keltirish, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida subyekt-subyekt munosabatlarini shakllantirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining subyektivligini oshirish hisobiga "o'qituvchi-talaba" munosabatlaridan "talaba-talaba" va "o'qituvchi-o'qituvchi" munosabatlariga o'tish asosida o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish va ularni shakllantirish zahirida, eng avvalo, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish, ularning yangi shart-sharoitlarga va zamonaviy talablarga psixologik moslashuvini tezlashtirish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash mumkin.

Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirish yo'nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ma'ruza, seminar, davra suhbat, tadbirlar, treninglar, konferenya, ekskursiya, mustaqil ta'lim, pedagogik amaliyot, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlarini tayyorlash

PEDAGOGIKA

jarayonlarini murakkab tizim sifatida ko'rib chiqib, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash zarur hisoblanadi.

Ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda pedagogik jarayonlarni ma'lum bir izchillikda tashkil etish va unda o'rganiladigan mavzularning mazmun-mohiyatiga ko'ra o'zaro bog'liq holda o'rganish, ma'ruza, seminar mashg'ulotlarida o'rganiladigan mavzular bilan talabalar mustaqil o'rganadigan mavzularni belgilashda ularning izchilligiga hamda mavzularni parallel o'rganish mumkinligiga e'tibor qaratish zarur.

Taklif etilayotgan ushbu loyihada yoritib berilgan ta'lim-tarbiya, mustaqil ta'lim va ta'lim-tarbiya vositalari mazkur jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash bilan bir qatorda, bu jarayonlarning yo'nalishi, maqsad va vazifasiga ko'ra mavzularni tanlash, mavzularni ma'lum bir izchillikda yoki parallel o'rganilishini ko'zda tutish hamda ularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini ta'minlash asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur loyihada keltirilgan ta'lim-tarbiya, mustaqil ta'lim va tarbiyaviy vositalar jarayonlarini tashkil etishga tizimli yondashuvni tatbiq etishda tizimni tashkil etuvchi komponentlarning o'zaro aloqadorligi, bog'liqligi va integrativligi kabi qator xususiyatlarini, ya'ni tizimni ixtiyoriy komponentining o'zgarishi butun bir yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatishini inobatga olish zarur.

Ta'lim-tarbiya, mustaqil ta'lim va ta'lim-tarbiyaviy vositalar jarayonlarini tashkil etishga tizimli yondashuvni tatbiq etishda mavzularning mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko'ra ma'lum bir izchillikda va o'zaro bog'liq holda o'rganish zaruriyati hamda ma'ruza, seminar va mustaqil ta'lim jarayonlarida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzular, pedagogik amaliyot jarayonida talabalar o'rganishi zarur bo'lgan tushunchalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari yozish uchun tavsiya etiladigan mavzularning mazmun-mohiyati, ahamiyati, shuningdek, mazkur mavzular yo'nalishidagi adabiyotlar va ilmiy-metodik ta'minot inobatga olinishi zarur sanaladi. Bular o'z navbatida talabalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish asosida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarini oldindan modellashtirish zaruriyatini belgilaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tushunchalarni faol o'zlashtirishga qiziqishni shakllantirish, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlarida faol ishtirok etishga, yangiliklardan unumli foydalanishga, innovatsion fikrlashni takomillashtirishga talabalarni motivlashtirish yo'nalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan shaxs-faoliyat yondashuvini tatbiq etish ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Shaxs – faoliyat yondashuvi yo'nalishida izlanishlar olib borgan tadqiqotchilar [9,168] ushbu jarayonning talabalar innovatsion fikrlashining rivojlanishidagi o'rnini quyidagicha izohlashga harakat qiladilar.

1. Shaxs – faoliyat yondashuvida shaxsning va faoliyatning komponentlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi, chunki bu yondashuv jarayonida shaxs subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi va o'z navbatida, turli xil omillar ta'sirida hamda shaxsning o'z faoliyati natijalari ta'sirida uning subyekt sifatida rivojlanishi amalga oshadi.

2. Shaxs – faoliyat yondashuvida talabalarning mustaqil faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ta'lim-tarbiya jarayonidagi mavjud omillarni aniqlash asosida mazkur jarayonda vujudga kelayotgan o'zgarishlarni vaziyatlarga ko'ra tahlil qilish zarur bo'lib, bunda talabalarni mustaqil va erkin fikr bildirishi, hech qanday hadiksirashlarsiz o'z tushunchalarini ifodalashi, erkin muloqotga kirishishi, ya'ni o'z imkoniyatlarini namoyon etishi uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlar yaratiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishiga alohida yondashilmoqda. Bunday imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning innovatsion fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, dunyoqarashi, tafakkuri va qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabalarda ijodkorlik, faollik, innovatorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, kommunikativlik, fidoiylik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, innovatsion, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir talaba imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini

hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari pedagog-talaba yoki talaba-talaba, talaba-talabalar guruhi, talaba-talabalar jamoasi tarzida o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, talabani kasbiy tayyorgarligini oshirish, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga etishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, innovatsion fikrlashga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi.

Mazkur jarayonni samaradorligini oshirishda pedagoglar faoliyati muhim ahamiyatga ega bo'lib ular o'z faoliyati jarayonida quyidagilarga jiddiy amal qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Buning uchun:

- har bir talabani alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- talabani hurmat qilishi;
- talabani ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- talabani xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- har bir talabaga nisbatan tolerant munosabatda bo'lishi;
- talabani kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir talaba o'quv fanlari asoslarini yetarlicha o'zlashtira olishi uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- talabalarning mustaqil yoki kichik guruhlariga erkin ishlashlari uchun imkoniyat yaratish;
- talabalarni o'z faoliyatlarini mustaqil nazorat qilish, faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- ta'lim jarayonida hech bir talabaga tazyiq o'tkazmaligi;
- alohida talabani kamchiliklarini bo'rttirib ko'rsatmasligi; talaba tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, ta'lim jarayonida o'zini odobsiz tutish holati qayd etilsa, u holda qat'iy xulosa chiqarmasdan, buning sabablarini aniqlash;
- aniqlangan sabablar asosida talabani sha'ni, g'ururiga ziyon etkazmagan holda u tomonidan bilimlarni o'zlashtira olmaslik, o'zini odobsiz tutish kabi holatlarni bartaraf etish;
- ta'lim jarayonida har bir talaba uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- har bir talabaga ta'lim olisha muvaffaqiyatga erisha olishiga yordam berish;
- talabani qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- talabani shaxsini emas, balki uning aniq xatti-harakatlarini baholashi;
- pedagog sifatida har bir talabani hurmati va ishonchini qozona olishi zarur.

Shuningdek talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini himoya qilish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish, bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega turli faol metodlarning qo'llanilishi, talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashg'ulotlarini tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqitira oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Ta'lim jarayonida pedagoglar tomonidan:

- muammoli izlanish; kichik tadqiqotlarni olib borish; debat; bahs-munozara; evristik suhbat; kichik guruhlarda ishlash va b.
- turli shakl, metod, vosita va texnologiyalardan samarali, maqsadli foydalanish;
- o'quv topshiriqlarini bajarishda talabalarga usullarni mustaqil tanlash imkonini berish;
- talabani juftlikda, kichik guruhda va jamoada ishlashini ta'minlash;
- mashg'ulotlarning loyihalashtirilishiga e'tiborning qaratilishi nafaqat o'qitish sifatini yaxshilaydi, samaradorligini oshiradi, shu bilan birga talabalar shaxsning rivojlanishi uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi

Eng muhimi pedagoglar o'quv mashg'ulotlarining nafaqat axborot berish, balki rivojlantirish xarakteriga ega bo'lishlariga e'tiborni qaratishlari zarur. Shuningdek, muhokama qilinyotgan

PEDAGOGIKA

masala, muammo, o'rganilayotgan mavzu yuzasidan talabalarning mustaqil fikr bildirishlari (noto'g'ri bo'lsa-da, fikr bildirishlari)ga imkon berish, nima bo'lganda ham ularni o'ylashga, fikrlashga undash shaxsga yo'naltirilgan ta'limga xos muhim belgilardan biri sanaladi. Ta'lim jarayonida quyidagilardan foydalanish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yana bir belgisidir:

Ayni vaqtda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi turlari farqlanmoqda,

– innovatirlikka yo'naltirish, innovatsion fikrlash ko'nikmasini shakllantirish, matiflashtirish, ijodiy topshiriqlar berish;

– muammoli vaziyatlar, kreativ yondashishga yo'naltirilgan vazifalar; rolli va ishbilarmonlik o'yinlari; bahs

– munozara va debatlar;

– seminar treninglar; musobaqa ko'rinishidagi bellashuvlar,

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning quyidagi turlariga quyidagilar kiradi. Innovatsion ta'lim, hamkorlik ta'limi, interfaol ta'lim, masofaviy ta'lim, muammoli ta'lim, loyiha ta'limi, kompyuter ta'lim, rivojlantiruvchi ta'lim, tabaqalashtirilgan ta'lim, modul ta'limi, individual ta'lim, mustaqil ta'lim, dasturiy ta'lim, o'yin texnologiyalari kabilar.

Talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish tizimi o'ziga xos murakkab jarayon sifatida qaralib, quyidagi prinsplarga asoslanadi: qiziqtirish; yo'naltirish; ko'niktirish; ilmiylik; ijodkorlik; hayotiylik va boshqalar. Mazkur prinsplar talabalarda innovatsion fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan kasbiy malakasini oshirish orqali ularning kasbiy tayyorgarlik ko'lamini kengaytirishga hamda ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti, PF-4947-son. Toshkent sh., 2017-y. 7-fevral
2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti qarori madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qosh-qoshlarimcha choratadbirlar to'g'risida PQ-112- son. Toshkent sh., 2022-y. 2-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori, PQ-4936-son. Toshkent sh., 2020 yil 28 dekabr.
4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b. 6.
5. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b
6. Юсуфбекова Н.Р. Педагогическая инноватика Возникновение и становление Вестник МГПУ» серии «Педагогика и психология», 2010, № 4 (14)
7. Кларин М.В. ИННОВАЦИОННЫЕ МОДЕЛИ ОБУЧЕНИЯ Исследование мирового опыта. 2016
8. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish. —Toshkent. Fan-2009
9. N. Ismoilova, D. Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya: o'quv qo'llanma. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. — 168 b.
10. <https://e-catalog.nlb.by/Record/BY-NLB-br0001855820>